

## “VIJDON AZOBI” OMINA SHENLIK O’G’LI ASARI

*Shoymurodova Farangiz Xamza qizi*  
*Toshkent Kimyo xalqaro Universiteti*  
*“Boshlang’ich ta’lim” yo’nalishi 2-*  
*bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Maqola kichik hayotiy voqealari asosida olingan bo’lib ulardan to’g’ri xulosa chiqarish haqida so’z borgan.

**Tayanch so’zlar:** maishatparastlik, yolg’onchilik, imonsizlik, Allohga qaytish.

**Аннотация:** В статье рассказывается о том, как сделать правильные выводы на основе небольших жизненных событий.

**Ключевые слова:** семейная жизнь, ложь, неверие, возвращение к Богу.

**Annotation:** The article is based on small life events and talks about drawing correct conclusions from them.

**Keywords:** domesticity, lying, unbelief, return to God.

Bu dunyoda har kim xato qilishi mumkin, “beayb parvardigor” bu “Vijdon azobi” kitobida ham insonlarning yomon yo’lga kirishi kabi illatlar kichik hikoyachalari orqali ko’rsatib berilgan.

Kitobdagi kichik-kichik qismli bu hikoyalar insonlarning haqiqiy hayotidan olingan bo’lib, ulardan to’g’ri xulosa chiqarishimiz dunyoviy narsalarga berilib oxiratimizni unutmashimiz joizdur.

Shundan misol qilib aytamanki, bu kitobning “Meni mendan qutqaring” hikoyasida bir qizning dunyoviy narsalarga ruju qo’yishi va hayotga yengil qarashi oqibatida yaqinlaridan ayrilishga ayniqsa Allohdan uzoqlashishiga sabab bo’ldi. Shu bilan chegaralanib qolmasdangina o’zi qatori boshqalarni ham gunoh ishlari tomon yetakladi, bu esa nafaqat o’z gunohi uchun balki boshqalarni xatosi uchun ham Alloh huzurida jazolanishini anglatadi “jumladan akasi singlisini aybi deb umrbod ozodlikdan mahrum etildi.

Umumiy qilib aytganda o’z dinini to’g’ri anglamaslik va unga ergashmaslik hikoya qahramonini ko’plab qiyinchiliklar ichida qolishiga sabab bo’ladi.

Bugungi zamon bilan bog’lasak hozirgi yoshlar ham, ijtimoiy tarmoqdan noto’g’ri foydalanish orqali zamonaviy va gunohga to’la hayot ortidan ergashmoqda.

Nima eksang shuni o’lasan. Ha, anglaganingizdek keying hikoyamiz Allohning adolati ya’ni insonning qilgan yomonligi bir kun o’ziga qaytishi haqida so’zlaydi. Ikki yetim bolani “katta qilgan” o’gay ona. Ulardan birini o’limiga yana birining qiyinchiliklar bilan ulg’ayishiga sababchi bo’ldi. Ohir oqibatda dunyolarga ishonmay katta qilgan o’z o’g’li keksayganda, o’gay farzandlari chekkan azobni boshiga soldi.

Endi bir necha yillar ilgari o`gay farzandlarini ko`chaga haydagandek o`z farzandlari tomonidan o`z uyidan quvildi.

Qissadan hissa shuki, hech bir gunoh javobsiz qolmaydi, zero Alloh adolatlidir. Zamon shunaqa ekan deb davrning ba`zi bir dinimizga xos bo`lmagan gunoh ishlari, go`yoki gunohligini bila turib o`zini do`zax jarligiga ketayotgan manqurt kabidir. Zero barchamiz borar joyimiz bir tuproq, ohiratdur.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. <https://t.me/ominaopanikitoblari>
2. [https://t.me/imomning\\_manekin\\_qizi](https://t.me/imomning_manekin_qizi)
3. <https://t.me/kitoblar1>